



## **O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I**

### **O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligida statistik va ochiq ma’lumotlar to‘plamlarini shakllantirish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 15-iyundagi PF-154-son Farmoni hamda “O‘zbekiston Respublikasi milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 3-avgustdagi PQ-4796-son qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman:**

Axborot-tahlil va ijro intizomi boshqarmasi (Sh.Muxamedov), Maktabgacha ta’lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi (L.Berdiyeva), Ta’lim sifatini baholash, litsenziyalash va akkreditatsiyalash departamenti (S.Radjabov), Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi (E.Murodov), Maktabdan tashqari ta’limni tashkil etish bo‘limi (I.Xoldarova) vazirlikning idoraviy statistika ma’lumotlarini shakllantirish va O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi bilan axborot almashinuvini ta’minlash bo‘yicha mas’ul bo‘linmalari etib belgilansin.

Strategik rivojlantirish va xalqaro reytinglar boshqarmasi (L.Xo‘jaqulov)ga UNESCOning Ta’lim bo‘yicha milliy statistika (National Statistics on Education, UNESCO) ma’lumotlar bazasida O‘zbekiston Respublikasi to‘g‘risidagi mavjud bo‘lmagan indikatorlarni (umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari va muassasalariga oid qismi bo‘yicha) xalqaro tan olingan va tavsiya etilgan uslubiyat asosida shakllantirish vazifasi yuklatilsin.

O‘zbekiston Respublikasining Ochiq ma’lumotlar portalida hamda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining rasmiy veb-saytlarida e’lon qilinishi lozim bo‘lgan ochiq ma’lumotlar to‘plamlari ro‘yxatini taqdim etish rejasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Axborot xizmati (D.Sobirova), AKTni joriy etish va raqamlashtirish bo‘limi (R.Musurmonov)ga tegishli tarkibiy bo‘linmalar tomonidan taqdim etilgan ochiq ma’lumotlar to‘plamlarini belgilangan muddatlarda O‘zbekiston Respublikasining Ochiq ma’lumotlar portalida (data.egov.uz) yangilab borish vazifasi yuklatilsin.

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2020-yil 29-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi milliy statistika tizimini yanada

takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 201-sonli buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

Devonxona (D.Isxakova) o'rnatilgan tartibda ushbu buyruqni barcha boshqarma va bo'limlari, hududiy boshqarmalar hamda vazirlik tasarrufidagi tashkilotlarga yetkazsin.

Mazkur buyruqning bajarilishini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

**Vazir**



**X.Umarova**

Toshkent sh.,  
2023-yil, 19-sentabr,  
331-son